



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

70111201 – Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
Magistratura



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**70111201 – Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi
va metodikasi**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: TAJIBAYEV SOYIB SAMIJONOVICH

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

fan doktori (DSc), professor



A'zo: PAUL TAYLOR

**Buyuk Britaniya Oliy ta'lim sifatini ta'minlash agentligi
(QAA)**

Pedagogika fanlari magistri

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260021
Xulosa raqami	873
Xulosa sanasi	01.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Guvohnoma: MAS № 0000161, 22.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	70111201
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000161, 22.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	70111201 – Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	70111201 – Theory and Methodology of Physical Education and Sports Training
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	70111201 – Теория и методика физического воспитания и спортивной тренировки
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	120 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	2 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	7-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Pedagog - tadqiqotchi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	30 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha tashkiliy-boshqaruv va ichki sifat tizimi muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturini amalga oshiruvchi tarkibiy tuzilma sifatida Sport faoliyati kafedrasini shakllantirilgan bo'lib, uning faoliyati normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan. Kafedra faoliyati universitet kengashi qarorlari, yig'ilish bayonnomalari hamda o'quv-uslubiy hujjatlar orqali tartibga solinadi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur moddiy-texnik baza, jumladan kompyuter texnikasi, sport jihozlari va o'quv vositalari bilan ta'minlangan, 5 yillik istiqbolli rivojlanish rejasida infratuzilma va resurslarni takomillashtirish yo'nalishlari belgilangan. Shu bilan birga, tarkibiy tuzilmani moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha aniq, o'lchanadigan va indikatorlarga asoslangan rejalashtirish hamda uning bajarilishi monitoringini aks ettiruvchi ma'lumotlar yetarli darajada yoritilmagan, moliyaviy ta'minot umumiy tarzda bayon etilgan. Mazkur holat indikator darajasidagi umumiy muvofiqlikni inkor etmaydi, biroq boshqaruvni natijaga yo'naltirish nuqtai nazaridan moliyaviy rejalashtirish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Ichki sifatni ta'minlash tizimi hamda manfaatdor tomonlar ishtirokining yo'lga qo'yilgani sifat monitoringini ta'minlaydi. Tashkiliy-boshqaruv tizimi ta'lim dasturini amalga oshirish uchun ishonchli asos yaratadi, moliyaviy rejalashtirishni indikatorlar bilan mustahkamlash esa uning samaradorligini yanada oshiradi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha ta'lim dasturi mazmunining asosiligi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi bo'yicha magistratura ta'lim dasturi Davlat ta'lim standarti va Milliy malakalar ramkasi talablari asosida, manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilgan bo'lib, dastur maqsadlari, o'quv natijalari va kompetensiyalari aniq

belgilangan. O'quv yuklamalari fanlar kesimida aniq, o'lchovli va me'yoriy asosda taqsimlangan, fanlar (modullar) tarkibida nazariy bilimlar, amaliy mashg'ulotlar hamda tadqiqot ishlari o'zaro uyg'unlashtirilgan bo'lib, bu magistratura bosqichidagi ta'limning ilmiy-tadqiqot yo'nalishini kuchaytiradi. Fan dasturlari learning outcomes (o'quv natijalari) asosida ishlab chiqilganligi ta'limning natijaga yo'naltirilganligini ta'minlaydi hamda bilim berishdan kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan yondashuvni aks ettiradi. Sport va jismoniy tarbiya sohasi uchun nazariya hamda amaliyotning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki metodik tayyorgarlik amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlanadi. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan "Pedagog-tadqiqotchi" kvalifikatsiyasining mazmunan aks ettirilishi dasturning ilmiy-pedagogik yo'nalishini tasdiqlaydi. Ta'lim dasturi mazmuni milliy standartlar asosida ilmiy-tadqiqot va amaliy komponentlar uyg'unligida tizimli shakllantirilgan.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va baholash tizimi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ishchi o'quv reja va fan dasturlari dastur maqsadlari hamda kutilayotgan o'quv natijalariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, o'quv jarayoni nazariy ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, tadqiqot ishlari va attestatsiya jarayonlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlaydi. Baholash jarayonlarini tashkil etish tartibi, shikoyat berish shakllari, muddatlari va ularni ko'rib chiqish mexanizmi aniq belgilangan bo'lib, bu baholashning shaffofligi va obyektivligini ta'minlaydi. Akademik halollik hamda kasbiy mas'uliyat tamoyillari tartibga solinganligi ta'lim jarayonining ishonchliligini oshiradi. Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida amaliy ko'nikmalarni obyektiv baholash muhim ahamiyat kasb etadi, nazariy va amaliy komponentlarning o'zaro bog'liq holda baholanishi esa o'quv natijalariga erishishni tizimli ravishda qo'llab-quvvatlaydi. O'quv jarayoni va baholash tizimi shaffof, natijaga yo'naltirilgan hamda amaliyot bilan uzviy bog'langan holda tashkil etilgan.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha talabalar faoliyatini tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Magistraturaga qabul mezonlari va talablari aniq belgilangan bo'lib, ular abituriyentlarga ochiq axborotlashtirish tizimi orqali yetkaziladi. Qabul jarayonlari amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tashkil etilgan. Qabul parametrlari universitetning mavjud resurslari va imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirilgan bo'lib, magistratura uchun belgilangan 30 nafar qabul kvotasi mavjud infratuzilma bilan muvozanatlashtirilgan. Talabalar harakatini, jumladan

kursdan-kursga o'tkazish, chetlashtirish va qayta tiklash jarayonlarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lib, ular talabaning ta'lim traektoriyasini huquqiy jihatdan himoya qilishni ta'minlaydi. Talabalarga akademik, ilmiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda maslahat berish mexanizmlari shakllantirilgan bo'lib, ular uchun qulay ta'lim va ilmiy-tadqiqot muhiti yaratilgan. Talabalar faoliyati yo'nalishi shaffof, adolatli va resurslar bilan muvozanatlashtirilgan tizim asosida tashkil etilgan hamda talabalar huquq va manfaatlarining himoyasi ta'minlangan.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha ta'lim dasturini amalga oshiruvchi inson resurslari salohiyati barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgan bo'lib, asosiy shtatdagi xodimlar ulushi hamda ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchilar ulushi magistratura ta'limi uchun belgilangan normativ talablarga mos keladi. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi hamda metodikasi kabi ilmiy-amaliy yo'nalishda professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati va sport-pedagogik tajribasi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi, ularning belgilangan talablarga muvofiqligi ta'lim dasturining ishonchli akademik asosga ega ekanini tasdiqlaydi. Kadrlarni kasbiy rivojlantirish, malaka oshirish, baholash va rag'batlantirish mexanizmlari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular professor-o'qituvchilar salohiyatini muntazam oshirib borish imkonini yaratadi. Magistratura bosqichida kadrlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi, chunki magistrantlarning ilmiy ishlari malakali ilmiy rahbarlikni talab qiladi. Inson resurslari bazasi ta'lim dasturini sifatli va barqaror amalga oshirish hamda uning ilmiy-tadqiqot komponentini ta'minlash uchun yetarli asos yaratadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha moddiy-texnik ta'minotning yetarlilik darajasi barcha mezonlar kesimida muvofiq deb topilgan. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur asbob-uskunalar, sport jihozlari, texnik vositalar va o'quv infratuzilmasi mavjud bo'lib, ular amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlari maqsadlariga mos keladi. O'quv xonalari, IT-infratuzilma va ish joylari talabalar kontingentidan kelib chiqib ta'minlangan, mehnat muhofazasi hamda xavfsizlik talablariga rioya etilgan. Jismoniy tarbiya va sport yo'nalishi uchun sport inshootlari, mashg'ulot zallari va maxsus jihozlarning mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki amaliy-metodik ko'nikmalar aynan shunday moddiy-texnik baza asosida shakllantiriladi. Axborot-resurs ta'minoti,

elektron resurslar va raqamli ta'lim muhitining mavjudligi o'quv jarayonini axborot jihatidan qo'llab-quvvatlaydi hamda magistrantlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratadi. Har bir fan bo'yicha zarur o'quv-metodik ta'minot mavjud bo'lib, bu ta'lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Moddiy-texnik ta'minot mazkur yo'nalish bo'yicha sifatli ta'lim jarayonini tashkil etish hamda amaliy-ilmiy tayyorgarlikni ta'minlash uchun yetarli va ishonchli asos yaratadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Tarkibiy tuzilmani moddiy-texnik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlash bo'yicha aniq, o'lchanadigan va indikatorlarga asoslangan rejalashtirish hamda bajarilish monitoringi yetarli darajada ochib berilmagan.
- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha taqdim etilgan hujjatlarning mazmunini boyitish va jarayon natijadorligini asoslovchi dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ O'quv-metodik ta'minotni hamda sport-ilmiy resurslarni muntazam yangilab, kengaytirib borish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Dasturga yo'naltirilgan moliyaviy resurslarni rejalashtirishni aniq ko'rsatkichlar va monitoring mexanizmlari bilan mustahkamlash.
- ✓ Indikatorlar bo'yicha hujjatlar mazmunini boyitish va jarayonlar natijadorligini dalillovchi materiallar bilan asoslash.
- ✓ Sport-pedagogik va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida professor-o'qituvchilar salohiyatini oshirish hamda magistrantlar ilmiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash.
- ✓ Zamonaviy o'quv-metodik adabiyotlar, elektron resurslar va sport-ilmiy bazalarga kirishni kengaytirish.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Buxoro davlat universiteti" davlat muassasasida 70111201 – "Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi" magistratura ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy

materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar, Sport faoliyati kafedrası tarkibidagi malakali kadrlar, nazariy va amaliy komponentlarni uyg'unlashtirgan o'quv dasturi hamda sport infratuzilmasi va moddiy-texnik baza shakllantirilgan. Tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturi mazmuni, o'quv jarayoni, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlarining barchasi belgilangan mezonlarga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar — moliyaviy rejalashtirishni indikatorlar bilan mustahkamlash va ayrim hujjatlar mazmunini boyitish — dasturni amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan, asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlari va talablariga yuqori darajada mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

